

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

**SURXONDARYODA
ILM VA FAN**

**THE KNOWLEDGE AND
SCIENCE IN
SURKHANDARYA**

**ЗНАНИЯ И НАУКА
В СУРХАНДАРЬЕ**

№1 (06)/2022

Termiz-2022

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR

FALSAFA

SH. B. SAMATOV

Aziziddin Nasafiy ma'naviyatida komil inson g'oyasi 54

U. B. BERDIYEV., D. O'. HASANOVA

Birinchi renesans davri buyuk allomalarining ishlari tadqiqi 58

TARIX

SH. P. TOSHEVA

Mirzo Abdulazim Somiyning "Tuhfayi shohiy"
asarida Sharqiy Buxoro tarixiga doir materiallar 60

O. YUSUPOV

Sa'duddin Taftazoniyning riyoziyot ilmiga oid qo'lyozma asarining o'rganilishi haqida 65

PEDAGOGIKA

A.A.СКОРЛУПКИНА

Значение чтения книг для всестороннего развития младшего школьника 67

FILOLOGIYA

A. SH. ESANOV

Linguistic analysis of concept "friendship" 71

CH.B. MANNONOVA

Jurnalistikada matn tahririning o'ziga xosligi 75

P. M. RO'ZIBOYEVA

Javlon Jovliyevning "Qo'rqma" romanida ayollar obrazi tadqiqi 80

S. D. TULIBOYEV

O'zbek va turk adabiy aloqalarining rivojlanish tarixidan 84

L. SH. ESANOVA

The peculiarities of teaching professional english vocabulary to the students
of law universities (based on the lexemes «right» and «law») 86

MIRZO ABDULAZIM SOMIYNING “TUHFAYI SHOHIIY” ASARIDA SHARQIY BUXORO TARIXIGA DOIR MATERIALLAR

Sh. P. Tosheva, O‘zR FA Milliy arxeologiya markazi kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya. Buxoro amirligi tarixiga oid muhim manbalardan biri – tarixnavis Mirzo Abdulazim Somi Bo‘stoniy qalamiga mansub, 1902-1903 yillarda fors-tojik tilida yozgan “Tuxfayi shohiy” (“Podshohga atalgan tuhfa”) nomli tarixiy asardir. Unda Buxoroda qariyb bir yuz yetmish yilga yaqin hukmronlik qilgan mang‘it amirlari tarixi yoritilgan bo‘lib, bekliklaridagi ahvol va ularning markaziy hokimiyat bilan munosabatlari haqida ham nihoyatda tafsilli ma‘lumotlar mavjud. Jumladan, asarda Sharqiy Buxoro beklarining Rossiya-Buxoro urushi oldidan va undan keyingi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, ularning markaziy hokimiyatga qarshi kurashi va bu bekliklarning Buxoro amirligiga bo‘ysundirilishi keng yoritiladi. Janglarda bevosita ishtirok etgan muallif o‘zi guvoh bo‘lgan voqealarni batafsil qalamga olgani va bu ma‘lumotlar boshqa manbalarda uchramasligi asarning qiymatini yanada oshiradi. Ushbu maqolada amir Muzaffarning 1863 va 1866 yillarda Hisorga qo‘shin tortishi voqealari tarjimai berildi.

Kalit so‘zlar: Buxoro, Sharqiy Buxoro, Hisor, beklik, hokim, Rossiya, qo‘shin, jang tafsilotlari, qabila, qo‘zg‘olon.

Аннотация. Одним из важнейших источников по истории Бухарского эмирата, является написанный в 1902-1903 годах на персидско-таджикском языке историком Бухарского эмирата Мирза Абдулазизом Сами Бустани исторический труд «Тухфайи шахий» («Подарок царю»). В нём освещается история мангытских эмиров, правивших в Бухаре около ста семидесяти лет, описываются особенности административного управления в бухарских бекствах и социально-политическая обстановка того времени. Ценные сведения автор оставил о событиях второй половины XIX века. В частности, им широко освещалась общественно-политическая ситуация в Восточно-Бухарских бекствах до и после русско-бухарской войны, их борьба против центральной власти и подчинение этих княжеств Бухарскому эмирату. Особая ценность произведения Мирзо Абдулазима Сами Бустани заключается в том, что автор принимал непосредственное участие в этих событиях, в кровопролитных боях. Поэтому информация о событиях, очевидцем которых он был, уникальна и не встречается в других источниках. В данной статье анализируется историческая значимость произведения Мирза Абдулазима Сами Бустани, и даётся перевод эпизода его книги, который описывает поход Эмира Музаффар в Гиссарское и другие бекства Восточной Бухары в 1863 и 1866 гг.

Ключевые слова и выражения: Бухара, Восточная Бухара, Гиссар, княжество, наместник, Россия, войско, подробности битвы, племя, восстание.

Annotation. Written in 1902-1903 in the Persian-Tajik language by the historian of the Emirate of Bukhara Mirzo Abdulazim Somi Bostani, the historical work “Tukhfayi shokhiy” (“Gift to the King”), which highlights the history of the Mangit emirs who ruled in Bukhara for almost one hundred and seventy years, describes the situation in principalities and their central administration. There is extremely detailed information about the relationship. In particular, the socio-political situation in the East Bukhara principalities before and after the Russian-Bukhara war, their struggle against the central government and the subordination of these principalities to the Bukhara emirate were widely covered. The value of labor is further enhanced by the fact that the author, who was directly involved in the battles, recorded in detail the events he witnessed, and that this information is not found in other sources. In this article, when Amir Muzaffar went to Hissar in 1863 and 1866. Events have been translated.

Key words and expressions: Bukhara, Eastern Bukhara, Gissar, principality, governor, Russia, army, battle details, tribe, uprising.

KIRISH

Bepoyon va serhosil Hisor azaldan Buxoro hukmdorlarini ohanrabodek o'ziga jalb etib kelgan. Bu yerlarda Abdulloxon (1557–1598) davrlaridan boshlab o'zbeklar hukmronligi o'rnatilgan edi. Qachon Buxoro kuchaysa, Hisor o'lkasiga o'z hukmronligini o'rnatgan. Buxoroda markaziy boshqaruv zaiflashgan payt yoki hukmdorlar almashinuvidan foydalangan mahalliy hukmdorlar darhol mustaqil bo'lib olganlar. Ba'zida esa, ular yarim mustamlaka shaklida Buxoro davlatiga bo'ysundirilgan.

Buxoro manbalarida garchi ba'zan qisqa bo'lsa-da, turli davrlarda amirlikning Sharqiy Buxoro bekliklari bilan munosabatlariga oid ma'lumotlar mavjud. Ammo, bu bekliklarning XIX asrning ikkinchi choragi tarixiga doir ma'lumotlar aynan Buxoro an'anaviy tarixnavislik maktabi vakillaridan biri Abdulazim Somiyning (1838–1907) "Tuhfayi shohiy" asari orqali tarixga kirib qolgan. Chunki, amir Muzaffar (1865–1885) 1863- va 1866-yillarda Hisorga qo'shin tortganida shu qo'shin tarkibida "navisanda" ("yozuvchi") sifatida bevosita ishtirok etgan Mirzo Somiy o'zi guvoh bo'lgan voqealarni batafsil qalamga olgan. Somiydan keyin Buxoro tarixini yozishga jazm qilgan Mirza Salimbek va Sadr Ziyo kabi tarixchilar o'z asarlarida ushbu voqealarni yoritishda asosan uning ma'lumotlariga tayanganlar.

Rossiya istilosi arafasida Buxoro amirligi tashqaridan qaraganda birmuncha qudratli ko'rinsa-da, mamlakatda ijtimoiy siyosiy ahvol ancha murakkab edi. Xususan, Shahrisabz va Kitob hamda Sharqiy Buxoro bekliklarining Buxoro davlatiga tobeligi nomigagina bo'lgan. Amir Muzaffar o'z hukmronligining ilk besh yilligida bu bekliklarni qaytadan Buxoro davlati tarkibiga kiritishga erishdi. Ammo bu birlashish ko'p qon to'kish va iqtisodiy talofatlar evaziga amalga oshdi. Dushman mamlakat ostonasida turganda ko'plab askarlar va mohir lashkarboshilarning qirib tashlanishi amirlik harbiy qudratiga jiddiy putur yetkazdi.

Mirzo Somiyning xabar berishicha, Amir Nasrulloh (1825–1860) Sharqiy Buxoro hokimlarining separatist Shahrisabz beklari bilan ittifoqchi bo'lishi ehtimolining oldini olish maqsadida, ularni yarim mustamlakaga aylantirish bilan cheklangan. Biroq, Buxoro taxti amir Muzaffar qo'lga o'tgach, bu bekliklar unga bo'ysunmay, mustaqil bo'lib oladilar. Bundan g'azablangan amir Muzaffar 1280/1863–1864-yilning shiddatli qishida Hisorga qo'shin tortishga farmon beradi. Oradan bir necha yil o'tgach, Abdusattor inoq hukmronligi davrida Hisor yana itoatdan chiqadi. Bu galgi g'alayonlarda Mirzo Somiy hisorliklarni ayblamaydi, aksin-

cha, Hisor hokimi Abdusattor inoq nojo'ya xatti harakatlari bilan aholini ranjitgani va ularning nafratiga uchraganini qayd etadi. Hisor sardorlari qal'ani qamal qilgach, Abdusattor inoq amirni vaziyatdan xabardor qiladi. Darhol Sherali biy boshchiligidagi qo'shin Hisorga jo'natiladi va orqadan katta lashkar bilan amirning o'zi ham yo'lga chiqadi. Amir qo'shinlari yetib kelib avval Hisor va Regarni, so'ngra Ko'lobni qo'lga kiritadi. Oqibatda mahalliy aholi yana bir bor qirg'inga duchor bo'ladi.

Rossiya Buxoro urushi davrida Samarqand istilo etilgach, Sherobod, Hisor, Dehnav, Yurchi va Xuttalonda amirga qarshi qo'zg'olon boshlanib, u yerlarda amir tomonidan qo'yilgan hokimlar chetlatildi va hukumat yana mahalliy beklar qo'li ostiga o'tdi. Bu gal butun Sharqiy Buxorodagi g'alayonchilarga yerli o'zbeklarning qatag'on urug'iga mansub bo'lgan Sarabek rahnamolik qiladi. U ruslarga qarshi kurashlarda katta lashkari bilan Abdumalikni qo'llab quvvatlaydi. Shu bilan birga u Sharqiy Buxoroda o'z ta'sirini kengaytirib borgan. 1868–1870-yillar orasida Sarabek Hisor, Qo'rg'ontepa, Qabodiyon, Fayzobod, Vaxsh va Kofirnihon daryolarining quyi oqimidagi hududlarni o'ziga bo'ysundirdi.

Amir Muzaffar Rossiya davlati bilan shartnoma imzolagach, rus qo'shinlari yordamida Qarshi viloyatini qaytadan o'z tasarrufiga kiritadi. Shundan so'ng amir 1870-yilda Yoqub qushbegi boshchiligidagi qo'shinni Sherobod ustiga jo'natadi. Birin ketin Sherobod, Dehnav, Ko'lob egallandi. Somiyning yozishicha, qal'a va shaharlar qo'lga kiritilgach, isyonchilar qattiq jazoga tortilgan. Birgina Darbandda amir tomonidan dehnavlik va hisorlik isyonchilardan 200 kishi qatl etilgan. Qarshilik ko'rsatgan mahalliy aholi shafqatsiz jazolangan. Hokimlar va mirlarning mol mulki musodara etilgan, natijada katta xazina qo'lga kiritilgan.

Quyida "Tuhfayi shohiy"ning Rus Buxoro urushi arafasida va urushdan keyin Sharqiy Buxoro bekliklaridagi siyosiy vaziyat, mahalliy hokimlarning markaziy hokimiyatga qarshi kurashlari va bu harakatlarning amir qo'shinlari tomonidan bostirilishi tafsilotlarini o'z ichiga oluvchi qismlaridan hikoya qiluvchi muhim o'rinlarining tarjimai havola qilinmoqda. Tarjima «Tuhfayi shohiy»ning O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar jamg'armasida 2091-ashyo raqami ostida saqlanayotgan dunyodagi yagona to'liq nusxasi asosida amalga oshirildi (fors tilidan Sharifa Tosheva tarjimasi).

TUHFAYI SHOHIY

/175b/ Janobi oliyhazrat [Amir Muzaffar]ning Hisori Shodmon ustiga lashkar tortishi va uning fath etilishi va Abdulkarimxon hamda uning avlodlarining Allohning irodasi bilan qatl etilishi

Qo'shin Shahrisabz ustida turgan mahalda ular har qaysilari alohida alohida qo'shin bilan, ba'zan Regar hokimi Sattorqulbek lashkari ostida to'planib yordamga kelib, Shahrisabz ustida xizmat ko'rsatardilar. Xizmat tugagach, xusravona marhamatlarga sarafroz bo'lib qaytib ketardilar. Marhum janobi oliy shu qadar farmonbardorlik va itoatdan qanoatlanib, ularga ozor yetkazmay, bu mulkni ular ixtiyoriga berib qo'ygan edilar. Lekin bu hokimlar orasida aksariyat paytlarda bahs munozara g'ubori paydo bo'lib, bir birlari bilan jangu-jadal qilardilar. Har qachon bular orasida kelishmovchilik tug'lsa, janobi oliyhazrat odamlaridan birini yuborar, u sulh tuzdirib, ularni yarashtirib kelardi.

Marhum janobi oliy olamdan o'tib, podshohlik ishlari janobi oliyhazrat Sayid Amir Muzaffarga o'tgach va Shahrisabz viloyati tasarruf doirasidan chiqqach, Hisor hokimi Abdulkarim etak siltash va fasod olovini alangalatib, [Shahrisabzdagi] fasod ahliga yordam sifatida /176b/ porox va o'q yuborib, ularga dalda va quvvat berib turdi. Bundan janobi oliy xabardor bo'lib, uni bunday qusurli ishdan qaytardilar. Shundan keyin u o'zining aybsizligini izhor qilib, fazlu kamol va husni jamolda tengsiz o'g'li Olimbekni mo'l-ko'l tortiqlar bilan oliy dargohga jo'natdi. Olimbek qo'l o'pish sharafiga musharraf bo'ldi. Janobi oliy unga yaxshi turar joy tayinlab, bir necha kun ziyofat berib, uzrini qabul qildilar. Ruxsat berishdan oldin unga biy mansabini, zar xalat, tillo belbog' va sovg'alar, otu abzol in'om qildilar. Olimbek biy Buxorodan qaytib ketib, to'rt besh kun o'tgach, nomaqbul ishlar va ig'vo sodir qildi: uning kenagas hokimlariga jo'natgan maktublari janobi oliyga yetib keldi. Bu haqda unga aytganlarida inkor qilib: "Mazkur hokimlar menga ko'rsatilgan marhamatlarni /177a/ ko'rolmasdan hasad va rashk qilib, mening muhrimni o'ydirib, soxta xat yozdirganlar, bo'lmasa menga ko'rsatilgan bu qadar xusravona marhamatlardan so'ng bunday xiyonatni qilishga qanday haddim sig'adi!", deb keskin qasam ichdi. Shu sababli [amirning] nurli ko'ngillarida g'ubor paydo bo'lib, uni yo'qotish va qirib tashlash payida bo'ldilar.

1280 yilda [Amir Muzaffar] Hisorga lashkar tortishga farmon berib, sonsiz qo'shin va otash purkovchi to'plar bilan Hisori Shodmonga o'tlanib, Boysunga tushdilar. Buxoro qo'shinining kelib tushganidan xabar topgan Hisor ahlining hammasi ittifoq bo'lib, bir joyda fotiha o'qib, Anbarsoyni jang uchun mustahkamladilar. O'zlarining harbiy kuchlarini u yerga to'plab, go'yoki devor singari Buxoro lashkari yo'lini to'sdilar...

/177b/ Bu fursatda zafar qozonuvchi qo'shin Mirshodiga yetib kelib, hukmronlik bayrog'ini baland ko'tardi. U paytda qo'shinni taqsimlab, Rahmonbiy parvonachi to'q mang'itni hirovul qilib oldinga, amoratpanoh Odil biy qalmoqni maymana, amoratpanoh Sherali biy inoqni maysarada lashkarboshi tayinlab, yurishga amr berdilar. Ilk hamladayoq dushmanning sabot qadamiga putur yetib, /178a/ birozgina jangu jadaldan so'ng qochish vodiysiga yuz burdilar. Chodiri, qurol aslahalarini tashlab har kim har tomonga qochdi. Jangchilar ularni ta'qib qilib, ko'plarini o'ldirib, mingga yaqinini asir olib, dushmanni zabun etdilar. Hisor va uning atroflaridagi qo'rg'onlardagi isyonchilar Dehnav qal'asiga kirib, darvozalarga tuproq to'kib qamalib oldilar. Zafar qozonuvchi qo'shin Dehnav atroflarini chopovul qilib, kechqurun Anbarsoyga borib nur taratuvchi nigohga [amirga] manzur qildilar. Janobi oliy bandilar orasidan fuqarolarni ajratib, jangchilarini O'rdubozorda qatlga yetkazdilar. Qatl qilinganlarning soni 500 kishiga yetdi. Ularning jasadi Anbarsoyga tashlandi...

Janobi oliy Anbarsoydan ko'chib Dehnav ustiga yurdilar, qal'ani uzukning ko'zidek o'rab olib, qamal qildilar. /178b/ To'rt tomondan o'rab, qal'a teshuvchi to'plarni qal'aga to'g'rilab, to'pga tutdilar. O'ttiz kun mobaynida qal'ani to'plar va miltiqlardan o'qqa tutdilar. Shuncha qizg'in jahdga qaramay, g'alaba yuz ko'rsatmadi. Jang shu darajada yaqin masofadan olib borildiki, qazilgan lahmilar qal'a bilan tutashib ketdi. Jumladan, Rahmonqulbiy parvonachi mang'itning lahmi (ushbu nomani raqam qiluvchi uning yonida "yozuvchi" edim) Dehnav to'pxonasidan bor yo'g'i yuz qadamcha uzoqda edi. Qal'adan lahmdayilar boshi uzra yomg'ir misoli o'q yog'ilardi. Bir kun amoratpanoh meni lahm yoniga eltib, yozishga amr qildi. Daraxtning tagida o'tirib, uning panasida qalamdonni ochib, yoza boshladim. Qal'adan qalamdonni nishonga olib o'q otdilar, qalamdon mening yonimdan uchib, parcha parcha bo'lib ketdi. Xulosa shuki, jang shu qadar qizg'in olib borilishiga qaramay, fath muyassar bo'lmadi.

Shundan so'ng naqiblarga lahm qazishga amr berildi. /179a/ Ular ikki uch kungacha lahm qazib, qal'agacha bordilar va uni porox dorisi bilan to'ldirib, birdaniga o't qo'ydilar. Qal'a devorining ikkita joyidan uch gaz miqdorida teshildi. Devorning tepasida va qal'a to'pxonasida qancha odam bo'lsa, hammasi halok bo'ldi. Devorning yiqilgan joyidan jangchilar ot yugurtirib kirib, ko'plab odamlarni qirib tashladilar.

Dushmanning jang qilishga toqati qolmay, har kim devorning har yeridan teshib qochdilar. Zafar qozonuvchi qo'shin ko'plab odamlarni asirga olib, Dehnavni zabt etdi. Undan o'tib Sarijo'yni, Sariosiyoni, Regarni ham itoat ettirdi. Qoratog'ning oqsoqollari va ulug'lari istiqbolga chiqib, omonlik tiladilar. Janobi oliy mazkur viloyat aholisiga omonlik baxshida etdilar va omonlik muboraknomasini berdilar. Ularning orasidan pichoq va shamshir yasashda benazir hunarmand bo'lgan Mirzoboy pichoqchini qatlga yetkazdilar. Uning qatl etilishining sababi shunda ediki, u Abdulkarim otaliq uchun shamshir yasab, uning tig'i ustiga ushbu baytni o'yib yozib, unga tilla suvi bilan sayqal bergan edi. /179b/ Bayt:

Dami tig'am ba qatli mang'it'iyoni xunxor megardad,

Zi xuni mang'it'iyon in tig' javhardor megardad.

(Tarjimasi:

Tig'imning dami qonxo'r mang'it'lar qatliga kirishadi, Mang'it'lar qonidan bu tig' yanada keskirroq bo'ladi.)

Bu haqda janobi oliy eshitgan edilar, shunga ko'ra uni sazoga yetkazdilar. Qoratog' aholisidan boshqa hech kimga zarar yetkazmadilar.

Alqissa, janobi oliy Hisor yaqinidagi Ko'tarma mavzesida xushbaxtona qarorgoh qurdirib, Hisori Shodmon ustiga yurishga amr berdilar. Abdulkarim ko'rdiki, jang qilishdan natija chiqmaydi. O'g'illari Muhammad Amin biy va Olimbek biy va yana bir qancha yaqinlari bilan kechqurun Hisordan chiqib, Qo'rg'ontepa tomonga qochdi. Janobi oliy Hisorni fath etib, Abdulkarimning xazinasini qo'lga kiritish va sarishta qilish uchun Abdurasulbekni jo'natdilar. O'zlari qo'shin bilan birga Abdulkarimni ta'qib qilib, Vaxsh daryosi bo'yida to'xtadilar. Ulug' amirlardan bir nechasini bir qism zafarosor qo'shin bilan birga uning orqasidan jo'natdilar. Abdulkarim bu paytda g'aflat uyqusidan bedor bo'lib, /180a/ to'rt tomondan iloj va chora yo'llarining bog'liqligini ko'rdi. Janobi oliy quturib oquvchi Vaxsh daryosidan otda kechib o'tib, Bahodirobod qal'asiga kirdilar. [Abdulkarimning] orqasidan jo'natilgan amirlar Xuttalon yo'ldan uni tutib olib keldilar. U keltirilgach, o'zi va uning uch o'g'li qatl etishga hukm qilindi va Allohning irodasi bilan qatl etildilar.

Ko'lob hokimi Hamrohxon janobi oliyga ko'plab tortiq jo'natib, itoat izhor qildi. Uni xusravona marhamat bilan o'z joyida qoldirib, u yerdan qaytishga qaror berib, lashkarni qaytardilar. Hisorga kirgach, bir necha kun turib, elotning sarkashlarini karam va ehson donlari bilan itoat va bo'ysunish tuzog'iga kiritdilar. Hisorga amoratpanoh Bozor biy inoqni hokim tayinlab, undan Dehnavga keldilar. Dehnavda ham bir necha kun turib, unga sayodatpanoh Homid Xoja sudurni hokim qilib, tamomi davlat va dabdaba bilan jo'nab ketdilar. Hisor fathidan bir yil o'tgach, Bozor inoq vafot etdi.

Uning o'rniga amoratpanoh Odil biy devonbegi qalmoqni hokim qildilar. Mazkur devonbegi Hisori Shodmonda uch yil hokimlik qilgach, ishdan olindi, uning o'rniga Abdulsattoriy inoqni hokim etib jo'natdilar. Mazkur amoratpanoh u yerda hukmronlik bayrog'ini ko'tarib, u diyori aholisiga nisbatan noma'qul yo'l tutdi.

Abdulsattor inoq hokimligi davrida Hisor viloyatining vayron etilishi va amir ul mo'minin janobi oliyning Hisor ustiga borishi va bu diyorning fath etilishi

Abdulsattor inoq o'z xatti harakatlari bilan Hisor aholisini ranjitib, ularda nafrat uyg'otgach, o'sha mulk qabilalari nochor isyon ko'tarib, o'zaro ittifoq bo'lib, ahdu paymonni iymonda mustahkamlab, hammalari birgalikda Hisor arki tomon yurib, uni qamal qildilar. /181a/ Inoq shogirdpeshalar va sarbozlarni qo'rg'on devorlarini va minoralarini mustahkamlashga, o'qotarlarga to'p va miltiqlardan o't ochishga buyurdi va g'alayonning xabarini Buxoroyi sharifga, janobi oliyga jo'natdi. Mamlakatdagi bu vayronagarchilik xabari janobi oliyga yetgach, tezda Hisorga yurishga farmon berdilar va qo'shin to'plangach, unga Abdulsattor inoqning pochchasi amoratpanoh Sherali biy inoqni lashkarboshi tayinlab, nomdor jangchilarni o'zlaridan oldin Hisorga jo'natdilar. Janobi oliyning o'zlari ham orqadan ko'plab qo'shinu o't purkovchi to'plarni olib, iskandarona hashmat va jamshidona shavkat bilan Buxoroyi sharifdan chiqib, Hisori Shodmonga azm qildilar.

Sherali inoq hali Boysunga yetib bormasidan Hamrohxon Ko'lobdan kelib, Abdulsattorni hiyla bilan Hisordan olib chiqib Ko'lobga olib ketdi. Buning qisqacha tafsili shunday: Hisor mufsidlari janjalu nifoq yuzasidan Hisor arki atrofini o'rab olib, inoqni qamal qildilar. Xuttalon hokimi Hamrohxon /181b/ bu haqda eshitgach, inoqqa yordam berish va Hisor o'lkasini himoya qilish maqsadida Ko'lobdan chiqib, Hisorga keldi. Hisor qal'asi tashqarisida lashkargoh qurib, elotning o'zbek va tojik sardorlaridan yoniga chorlab, ulardan ahvolni surishtirdi. Bildiki, g'alayon borasida hamma yakdilu yaktildir. Abdulsattor inoqning moliyu xazinasiga bo'lgan ta'ma uni yo'ldan urdi, u ham o'shalarga qo'shildi. Zohiran o'zini Buxoro davlati tarafdoridek ko'rsatgani holda, g'alayon ahlini qo'rg'on atrofidan uzoqlashtirib, o'zining bir qism odamlarini ark darvozasi tomonga yubordi. U Ko'lobdan chiqayotganida janobi oliyga davlatxohlik yuzasidan mufsidlarni daf qilmoq uchun Hisorga keldim, deb arznoma jo'natgan edi. Janobi oliy uning so'zlariga ishonib: "Fitnani tinchitish va dushmanlarni daf etish borasida u xayrxoh [Hamrohxon]ning xohishlari qanday bo'lsa, shunday ish tutsinlar", deb noma jo'natgan edilar.

Hamrohxon bu nomadan o'z hiylasi yo'lida bir dalil sifatida foydalandi. /182a/ Abdulsattorga: "Men Hisor-

ni qo'riqlash va saqlash hamda sizga ko'mak berish uchun janobi oliy tomonidan ma'murdirman, darvozani ochishsin, ichkariga kirib fitnani daf etish xususida kengashga imkon tug'ilsin", deb xat yo'lladi. Bu paytda Buxoro qo'shini Mirshodiga yetib kelgan edi. Uning xabarini eshitgan Abdulsattor inoq Hamrohxonga xat yozib, janobi oliyning maktubi bo'lmasa, darvozani ochmasligini bildirdi ...

/182b/ Bu vaqtda Hamrohxon fursat topib, Abdulsattor inoq nomiga soxta noma yozdirdi va mazkur nomada quyidagilarni qayd ettirdi: "Hamrohxon har qanday maslahat va oqilona tadbirni qo'llasa, davlatxoh [Abdusattor] unga qarshilik ko'rsatmasinlar, nurli qalblarning roziligini unda bilsinlar". Inoq bu soxta nomani ko'rgach, uning haqiqiylikiga ishonadi va /183a/ Hisor arkining darvozasini ochib, Hamrohxonni kiritdi va unga o'zining jami xazinasi, mol mulki va buyumlarini ishonib topshirdi. Hamrohxonning oyog'i xazina boshiga yetgach, dilidagi yashirin muddaoisi ayon bo'lib, inoqning jamiki boyligi, mol mulki va haramini qo'lga kiritdi, Hisoran ko'plab ulovlarni olib ularni yuklab, inoq va uning yaqinlarini Ko'lobga olib ketdi. Hisor viloyatini odamsiz [rahbarsiz] g'alayonchilar ixtiyoriga qoldirdi. Bu vaqtda uning makru hiylasi lashkar amirlariga ma'lum bo'ldi, ular juda taassub chekdilar, ammo foydasi bo'lmadi.

Alqissa, amirlar Dehnav ustida edilar, janobi oliy ham yetib kelib, Dehnovni qamal qildilar. Qamaldagilarning ahvoli tang bo'lgach, g'alayon paytida hokim etib ko'tarilgan Dehnov mirbachchasi Ahmadbek kechqurun chiqib qochib ketdi. Fasod ahlining sardorlari Suyundik eshikog'oboshi turkman yuz, Yusuf miroxur qo'jar iztirob vodiysida hayron qolib, qo'lu oyoqlarini yo'qotdilar. Zafar qozonuvchi lashkar qo'shinlari /183b/ birdaniga hamla qilib, qal'ani fath qildilar va u ikki ig'vogarni va boshqa ko'plab kishilarni asir olib, janobi oliyga havola qildilar. Ularning jazo va sazoisi to'g'risida oliy hukm chiqarildi va fasod ahlining bu ikki sardori qatlga yetkazildi. Shundan so'ng Hisoran yo'lga o'tlanib, Regar viloyatiga tushdilar. G'alayonchilar jamoasi nihoyatda dushmanlik kayfiyatida shogirdpesha kishilardan va u viloyatdagi qarshilik savdogarlardan ko'plab odamlarni o'ldirib, Regar arkining darvozaxonasiga tashlagan edilar. Qo'shin Regarga kirib, murdalarni dafn qilib, hisorni qo'lga kiritdi. Janobi oliy ark ustiga chiqib g'alayonchilar ahlidan Xorgush ismli kishini va asir olinganlarning bir qanchasini qatl ettirdilar.

Shundan keyin Hamrohxonning ta'zirini berish va Abdulsattor inoqni xalos qilish niyatida Ko'lobga borishni ixtiyor qilib, hisordan chiqib Qiramindi mavzesida

to'xtadilar. G'oziy Malik qal'asida Muhammad Murodbek ismli kishi hukumat da'vosida bo'lib, itoatdan /184a/ bosh tortdi. Zafar qozonuvchi qo'shindan bir qismini uning ustiga jo'natdilar. Mazkur qal'a baland tog' cho'qqisida joylashgan bo'lib, unga eltadigan sirot ko'prigi namunasi kabi bo'lgan yagona yo'ldan boshqa yo'l yo'q edi. Uning qamali paytida yo'lining nihoyatda og'irligi tufayli ko'plab kishilar yo'qotish berildi. Shu paytda muxtor xudoning qudrati bilan shiddatli zilzila sodir bo'ldiki, bundan ortig'ini tasavvur etib bo'lmaydi. Zilzila sababli mustahkam qal'a devorining bir tomoni yiqilib vayron bo'ldi va dushmanlardan ko'plab kishilar qirilib ketdi. Bu u yerdagi odamlarning qo'rquv va vahimaga tushishiga bois bo'ldi. Muhammad Murodbek G'oziy Malik elotining sardorlari bilan itoatga kirib, o'z qilmishlaridan afsuslangan holda Qiramindiga kelib, jilovbo'slik sharafiga yetishdi. Janobi oliy u yerdagi boshqa sardorlar bilan birga uning ham gunohidan o'tib, xusravona marhamat ko'rsatdilar.

U yerdan otga o'tirib salobatli Vaxsh daryosiga tushdilar. Bir necha kun u mavzeda lashkargoh qurib turdilar. Ozuqa jihatidan qo'shin askarlari /184b/ qiyinchilik chekib, bu hol iztirob va majburiy choralariga bois bo'ldi. Shu sababli suv ko'paygan va tug'yon urgan mavsum bo'lishiga qaramay, Vaxsh daryosini kechuvsiz otda suzib o'tdilar. Bahodirobod qal'asiga borib tushdilar. Hamrohxon qo'shinining kelganidan xabardor bo'lib, balo eshigining o'ziga tomon ochilganini ko'rdi. Halokat vodiysiga yuzlanish va sargashtlikdan o'zga chora topolmay, qochib ketdi.

Hamrohxon mufsid qochib ketgach, Ko'lob viloyatining sardorlari itoatkorlik izhor etib, Abdulsattor inoqni oila a'zolari va shogirdpeshalari bilan sog'salomat Hisorga jo'natib yuborib, o'zlarining gunohlari-ning uzrini bildirib, jazolarining afvini so'radilar. Janobi oliy karam va ehson namunasini ko'rsatib, ularning jazosidan kechib, hammalarini podshohlik marhamati bilan siyladilar. /185a/ Hamrohxonning ukasi Sarabek oliy dargohdan homiylik so'ragan edi. Unga lutf ko'rsatib, otaliq mansabi bilan sarafroz etdilar va Xuttalon hamda uning atroflariga hokim etib tayinladilar. U viloyat ishlarini saranjomlab, fath va g'alaba bilan Bahodiroboddan jo'nab ketdilar. Daryodan yana otda suzib o'tib, Hisor viloyatiga keldilar. Amoratpanoh Abdulaziz biy dodxohni Hisor Shodmonga hokim etib, Fayzobod, Regar qo'rg'onlariga ham mustaqil hokim tayinlab, Hisoran chiqib Buxoroyi sharifga ravona bo'ldilar. Yo'l bosib Qarshiga kelib tushdilar. Viloyat sardorlari va urug' lashkarboshilarini behad mehribonliklar bilan xushnud ayladilar va Qarshidan chiqib, poytaxt Buxoroyi sharifga kirib keldilar.